



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 128 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы.....	86
Родина Ирина Витальевна	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar	91
Feruz Tohirova	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	99
Islomova Mushtaribonu Akram qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	104
Nafisa Tuxtasinova	
Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari	108
To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova	
Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi	113
Xudayberdiev Inom Xasanovich	
Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati	117
Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida O'simliklar mavzusini o'rgatish metodikasi	122
Normurotova Aziza Karim qizi, Fattoyeva O'g'iloy Ashurqulovna	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA TABIIY FANLARNI O'QITISH JARAYONIDA O'SIMLIKLAR MAVZUSINI O'RGATISH METODIKASI

Normurotova Aziza Karim qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

Fattoyeva O'g'iloy Ashurqulovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida "O'simliklar olamining xilma-xilligi", "Daraxtlar, butalar va o'tlar", "O'simliklar hayoti", "O'simliklarning urug'lari" hamda "O'zbekiston o'simliklar dunyosi" mavzulariga oid bilimlarni o'rgatish metodikasi yoritilgan. Maqolada keltirilgan ilmiy qarashlar dalillar bilan asoslangan, mavjud ilmiy muammolar tavsiflanib, ularning yechimlari taklif etilgan. Maqola yakunida muallif tomonidan tegishli xulosalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kommunikatsiya, kollaboratsiya, kritik fikrlash, kreativ fikrlash, daraxt, buta, yarimbuta, urug', flora, kislorod.

Abstract: This article discusses the methodology for teaching primary school students the topics "Diversity of the Plant World," "Trees, Shrubs and Herbs," "Plant Life," "Seeds of Plants," and "The Flora of Uzbekistan" in the process of natural science education. The scientific ideas presented in the article are supported by evidence, while descriptions of existing scientific problems and their possible solutions are provided. The article concludes with the author's findings and recommendations.

Key words: communication, collaboration, critical thinking, creative thinking, tree, shrub, subshrub, seed, flora, oxygen.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика преподавания учащимся начальных классов знаний по темам "Разнообразие растительного мира", "Деревья, кустарники и травы", "Жизнь растений", "Семена растений" и "Растительный мир Узбекистана" в процессе изучения естественных наук. Представленные в статье научные положения обоснованы доказательствами, охарактеризованы существующие научные проблемы и предложены пути их решения. В заключение статьи автором сформулированы соответствующие выводы.

Ключевые слова: коммуникация, коллаборация, критическое мышление, креативное мышление, дерево, кустарник, полукустарник, семя, флора, кислород.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son¹ "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq maktablarda tabiiy fanlarni joriy etish bo'yicha o'quv rejalari belgilandi. Mazkur qarorga muvofiq mamlakatimizda tabiiy fanlarga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi. Tabiiy fanlar bo'yicha mavzular o'quvchilarning yoshi, idroki va qiziqishlariga moslashtirildi hamda yangi avlod darsliklari yaratildi. Yangi avlod darsliklari bilan bir qatorda mashq daftarlarining joriy etilgani ham o'quvchilarga mavzularni mustaqil ravishda mustahkamlash imkonini yaratdi.

Tabiiy (Science) fani 1–2-sinflarda o'qitilayotgan "Atrofimizdagi olam", 3–4-sinflarda "Tabiatshunoslik" fanlarini, yuqori sinflarda esa geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab) va kimyo (7-sinfdan boshlab) fanlarini o'zida integratsiyalashgan holda qamrab oladi. Yangi joriy etilgan Science fanida atrofimizdagi jonli va jonsiz tabiat haqidagi nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan loyiha ishlari va laboratoriya mashg'ulotlari ham o'rin olgan. Bu esa o'quvchilarda olingan bilimlarni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

¹ <https://lex.uz/docs/-4945470>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitish, xususan, "O'simliklar" mavzusini samarali o'rgatish masalasi so'nggi yillarda pedagogika va metodika yo'nalishida yetarlicha tadqiq qilingan bo'lsa-da, mazkur yo'nalish hanuzgacha dolzarbligini yo'qotmagan ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda D. Sharipova, D. Xodiyeva, M. Shirinov, M. Nuritdinova kabi olimlarning tabiatshunoslikni o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlarida o'quvchilarda tabiat haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish, kuzatuv va tajriba faoliyatini tashkil etish masalalari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlardagi konstruktivistik yondashuv, bolalarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish hamda tabiiy fanlarni o'qitishda faol metodlardan foydalanish bo'yicha ilgari surilgan g'oyalar mazkur mavzuni chuqurroq o'rganish uchun ilmiy asos yaratadi.

Shu bilan birga, o'simliklar haqidagi bilimlarni o'quvchilar yoshiga moslashtirish, ularni STEAM yondashuvi va loyiha asosida o'qitish, ekologik tarbiyani integratsiyalash, mahalliy flora namunalari asosida kuzatuv hamda tajriba faoliyatini takomillashtirish kabi masalalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda "O'simliklar" bo'limini zamonaviy raqamli resurslar, virtual laboratoriyalar va dala mashg'ulotlari bilan boyitishga qaratilgan kompleks metodik tizim hali to'liq ishlab chiqilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlar darslarida "O'simliklar" mavzusini samarali o'rgatishning nazariy asoslari va amaliy metodikasini yoritishdan iborat. Maqolada o'simliklar haqidagi elementar ilmiy tushunchalarni yosh o'quvchilarga ularning yosh xususiyatlariga mos, qiziqarli va interaktiv ta'lim texnologiyalari orqali yetkazish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarda tabiatga mehr, ekologik madaniyat, kuzatuvchanlik va ilmiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik strategiyalar aniqlanib, ularning o'quv jarayonidagi ahamiyati asoslab beriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'lim tizimida tabiiy fanlarni o'qitish umumiy pedagogik muammolarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda o'quvchilarda tabiat hodisalarini anglash, kuzatuvchanlik, ekologik madaniyat va ilmiy tafakkurni rivojlantirish masalalari markaziy o'rin tutadi. Mazkur keng qamrovli masalalar ichida "O'simliklar" mavzusini o'rgatish metodikasining alohida ajratilishi bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan izohlanadi.

Birinchidan, o'simliklar bolalarga eng yaqin, kundalik hayotda uchraydigan tabiiy obyektlar bo'lgani sababli, ularning xususiyatlarini o'rganish o'quvchilarda tabiatni bevosita idrok etish, amaliy kuzatuvlar olib borish va tajribalar o'tkazish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu jihat mazkur mavzuning boshqa tabiiy fan bo'limlariga nisbatan amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Ikkinchidan, "O'simliklar" bo'limi biologiya, ekologiya, geografiya va texnologiya fanlari bilan bevosita integratsiyalash imkoniyatiga ega. Shu bois ushbu mavzuni o'qitish boshlang'ich sinflarda fanlararo integratsiyani samarali tashkil etish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Uchinchidan, o'quvchilarda tabiatga mehr, mas'uliyat, ekologik madaniyat va tejamkorlik kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishda "O'simliklar" mavzusining tarbiyaviy imkoniyatlari nihoyatda keng. Shu jihatdan mazkur muammo nafaqat metodik, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

To'rtinchidan, so'nggi yillarda o'quv jarayoniga STEAM yondashuvi, loyiha ishlari, tajribaga asoslangan ta'lim hamda raqamli kuzatuv vositalari keng joriy etilayotgan bo'lsa-da, aynan "O'simliklar" mavzusini ushbu innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan metodik tizim hali to'liq shakllanmagan. Shu sababli tanlangan muammo zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan boyitishni talab etuvchi istiqbolli metodik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Shu sababli mazkur maqolada ko'tarilgan "O'simliklar" mavzusini o'qitish metodikasini takomillashtirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishni talab etuvchi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinflarda "O'simliklar" bo'limi 3-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan darslikda berilgan bo'lib, unda "O'simliklar olamining xilma-xilligi", "Daraxtlar, butalar va o'tlar", "O'simliklar hayoti", "O'simliklarning urug'lari" hamda "O'zbekiston o'simliklar dunyosi" mavzulari yoritilgan. Mazkur mavzularda Yer yuzidagi o'simliklarning ahamiyati, o'simliklar dunyosi, noyob o'simliklar, ularning belgilari va turlari, shakllari, qismlari, turli fasllardagi holati, yashash muhitlari, urug'lari va urug' turlari, shuningdek, O'zbekiston o'simliklar dunyosi, Qizil kitob hamda botanika bog'lari haqida ma'lumotlar berilgan.


Mazkur mavzularni o'qitishda STEAM-integratsion metodidan foydalanish maqsadga muvofiq. S (Science) – o'simliklarning tuzilishi bo'yicha ilmiy kuzatuv. Bugungi kunda Yer yuzida o'simliklarning 300 mingdan ortiq turi aniqlangan. O'simliklar dunyosi flora deb ataladi va uni botanika fani o'rganadi. Baobab daraxti 1000-yildan

ko'proq yashaydi. Viktoriya ko'zachasi barglari diametri 2 metrgacha yetadi va 30 kilogrammgacha bo'lgan vaznni ko'tara oladi. Tekinxo'r rafflezia eng yirik gulli o'simliklardan biri hisoblanadi. T (Technology) – o'simliklarning o'sish jarayonlarini videokuzatuv va sensor qurilmalar yordamida kuzatish. Bu jarayonda o'simliklarning o'sishi, oziqlanishi, rivojlanishi va ko'payishi jarayonlari videokuzatuv materiallari orqali namoyish etiladi.


Elektron doska, audio va video qurilmalardan foydalanish o'quvchilarning mavzu yuzasidan tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi. E (Engineering) – o'simliklar yashash muhitining ekologik holatini o'rganish. O'quvchilar quyidagi ekologik omillarni kuzatadilar:

- yorug'lik miqdori (quyoshli va soyali joylar);
- namlik darajasi (sug'orilgan va quruq hududlardagi o'simliklar farqi);
- tuproq turi (qumloq, loyqa va serunum tuproq);
- havo harorati (issiqsevar va sovuqqa chidamli o'simliklar).


Mazkur ko'rsatkichlar o'simliklarning xilma-xilligiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilishga o'quvchilar o'rgatiladi.



1-rasm: Daraxtlar




2-rasm: Butalar



3-rasm: O'tlar

O'SIMLIKLAR TURLARI



4-rasm: O'simlik turlari



Bu jarayonda o'quvchilarga O'zbekistonda yo'qolib borayotgan o'simliklarning rasmlarini chizish hamda ular haqida qo'shimcha ma'lumotlar to'plash topshirig'ini berish mumkin. M (Mathematics) – o'simliklarning bo'yi, eni va barglari sonini o'lchash. Bu bosqichda o'quvchilarga o'simliklarning bo'yi va enini o'lchash, barglari sonini sanash, raqamli ma'lumotlarni yig'ish hamda ularni statistik ma'lumotlar bilan taqqoslash topshirig'i berilishi mumkin.

Mavzuda berilgan "O'simliklarning turlari" haqidagi ma'lumotlarni "Klaster" metodi orqali ifodalash mumkin. "O'simliklar" mavzusini o'qitishda Klaster metodidan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu metod o'quvchilarda mavzuga oid bilimlarni tizimli ravishda shakllantirish, ularni guruhlarga ajratish, o'zaro bog'liqlikni aniqlash hamda umumlashtirish imkonini beradi. Klaster yordamida mavzuning murakkab jihatlari sodda, tushunarli va vizual shaklda namoyon etiladi. Mazkur metod o'quvchilarni faol fikrlashga, mustaqil ishlashga, mantiqiy bog'lanishlarni aniqlashga, ijodiy yondashishga hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

"O'simliklarning urug'lari" mavzusida urug'larning yashash sharoiti, turlari va tarqalishi haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, urug'larning o'sish jarayoni amaliy mashg'ulotlar orqali yoritilgan. Shu sababli ushbu mavzuni o'qitish jarayonida amaliy mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu metod orqali o'quvchilar plastilin, qog'oz, karton, LEGO konstruktorlari yoki 3D ruchka yordamida urug'ning ichki tuzilishi modelini yasaydilar. Metodning maqsadi: urug'ning ichki tuzilishini amaliy modellashtirish orqali chuqur tushuntirish; o'quvchilarning ijodkorligi, tasavvuri va ilmiy tushunchalarini rivojlantirish; murakkab biologik tuzilmalarni eslab qolishni osonlashtirish. Nima uchun 3D model samarali? Urug'ning ichki tuzilishi oddiy kuzatishda ko'rinmaydi, model esa uni kattalashtirilgan holda namoyish etadi. O'quvchi modelni o'z qo'li bilan yasaydi, natijada faol o'rganish jarayoni yuz beradi. Murakkab biologik qismlar sodda va rangli ko'rinishda ifodalanadi. STEAM elementlari – konstruktorlik, biologiya va tasviriy san'at o'zaro integratsiyalashadi.



5-rasm: Urug' modelini yasash jarayoni

Urug'ni modellashtirish jarayonida o'quvchilarga plastilin yoki rangli yumshoq loy, karton, A4 formatdagi qog'oz, qaychi, markerlar, yelim yoki skotch kabi jihozlar kerak bo'ladi. O'simliklarning o'sishi va rivojlanish jarayonini zamonaviy interaktiv vositalar (elektron doska, videoroliklar va animatsiyalar) orqali o'quvchilarga namoyish etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda "O'simliklar" mavzusini to'g'ri tashkil etish o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish, tabiatga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirish hamda ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida mavzuni o'rgatish samaradorligi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tasavvuri va amaliy faoliyati bilan chambarchas bog'liqligi aniqlandi. Shu sababli darslarda kuzatish, tajriba, modellashtirish, klaster, mini laboratoriya, muammo asosida o'qitish, o'yinli va interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilish faoliyatini sezilarli darajada faollashtiradi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, "O'simliklar" mavzusini amaliy mashg'ulotlar bilan boyitish – urug' ekish, o'simlik qismlarini kuzatish, ularni tasniflash, gerbariy tayyorlash va modellashtirish kabi faoliyatlar o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash, kuzatish, solishtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, STEAM yondashuvi asosida 3D modellar yaratish, mini laboratoriya tajribalarini tashkil etish hamda raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarni fanlararo uyg'un fikrlashga o'rgatadi va mavzuni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, "O'simliklar" mavzusini o'qitishda zamonaviy metodlar bilan boyitilgan darslar an'anaviy yondashuvga nisbatan samaraliroqdir. O'quvchilar o'simliklarning tuzilishi, rivojlanishi, tabiatdagi ahamiyati va inson hayotidagi o'rnini amaliy kuzatuvlar asosida o'zlashtiradilar. Dars jarayoniga interaktiv topshiriqlarni, guruhli ish shakllarini, tajriba va modellashtirish faoliyatlarini kiritish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik savodxonlik, kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalar shakllanadi. Umuman olganda, "O'simliklar" mavzusini o'qitish metodikasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish ta'lim jarayonining sifatini oshirishga, o'quvchilarda fanlararo integratsiya orqali chuqur va barqaror bilimlarni shakllantirishga, shuningdek, tabiatni asrashga oid mas'uliyatli munosabatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son qarori. 2020-yil 12-avgust. <https://lex.uz/docs/-4945470>
2. Normurodova A. K., Fattoyeva O'. A. Tabiiy fanlarning joriy etilishi hamda boshlang'ich ta'limda Science fanining o'rnini va ahamiyati // Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali. – ISSN 2181-2659. – 2025. – № 1. – B. 191-196.
3. Malikova Y. V. Tabiiy fanlar. 3-sinf. 1-qism: Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: Novda nashriyoti, 2023. – B. 46-64.
4. Malikova Y. V. Tabiiy fanlar. 3-sinf. 1-qism: Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: Novda nashriyoti, 2023. – B. 50.
5. Malikova Y. V. Tabiiy fanlar. 3-sinf. 1-qism: Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: Novda nashriyoti, 2023. – B. 60.
6. <https://m.youtube.com/watch?v=Y2lyfrwtg6c>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.